

## ISHLAB CHIQARISH SANITARIYA VA GIGIYENASI

**Madraimova Sarvinoz**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisda ishlab chiqarish muhitidagi sanitariya-gigiyena qoidalari, xodimlarning sog'ligini saqlash va mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar o'rganilgan. Ish joylaridagi havoning sifati, shovqin, issiqlik va kimyoviy moddalarning salomatlikka ta'siri, shuningdek, gigiyenik normalar va profilaktik choralar tahlil qilingan. Tezisda xavfsiz va sog'lom ishlab chiqarish sharoitlarini yaratish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ishlab chiqarish sanitariyasi, gigiyena, ishchi salomatligi, xavfsiz ish sharoiti, mehnat unumdorligi, ish muhitining xavfsizligi, profilaktik chora-tadbirlar*

**Аннотация:** *В данной работе изучены правила санитарии и гигиены на производстве, меры по сохранению здоровья работников и повышению производительности труда. Рассмотрены качество воздуха на рабочих местах, воздействие шума, тепла и химических веществ на здоровье, а также гигиенические нормы и профилактические меры. В работе предложены рекомендации по созданию безопасных и здоровых условий труда.*

**Ключевые слова:** *производственная санитария, гигиена, здоровье работников, безопасные условия труда, производительность труда, рабочая среда, профилактические меры*

**Annotation:** *This thesis examines industrial sanitation and hygiene rules, measures to maintain workers' health, and improve labor productivity. It analyzes workplace air quality, the effects of noise, heat, and chemical substances on health, as well as hygiene standards and preventive measures. Recommendations for creating safe and healthy working conditions are provided.*

**Keywords:** *industrial sanitation, hygiene, workers' health, safe working conditions, labor productivity, workplace safety, preventive measures*

Ishlab chiqarish mikroiklimi — bu ishlab chiqarish binosi ichidagi meteorologik omillar majmuasi bo'lib, unga havo harorati, nisbiy namlik, havo harakatchanligi, atmosferaviy bosim, uskunalar va ishlanadigan materiallardan ajraladigan issiqlik, infraqizil va ultrabinafsha nurlanish kiradi.

Mazkur omillarning majmui ishlab chiqarish muhiti gigiyenasining asosiy ko'rsatkichlarini shakllantiradi hamda ishchi organizmining funksional holatiga, mehnat unumdorligiga va kasbiy xavf darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mikroiklim parametrlari ikki guruh omillar bilan belgilanadi: ichki va tashqi.

Ichki omillar nisbatan barqaror bo'lib, ishlab chiqarish texnologiyasi, qo'llaniladigan uskunalarning konstruktiv xususiyatlari va quvvati, shuningdek sanitariya-texnik qurilmalarining samaradorligi bilan belgilanadi.

Tashqi omillar esa o'zgaruvchan bo'lib, ular ob-havo sharoiti, kunning vaqtiga xos tabiiy o'zgarishlar, shuningdek binoning konstruktiv elementlari — devor, tom, romlar materiali va issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlariga bog'liq.

Ishlab chiqarish binosining issiqlik rejimi quyosh radiatsiyasi va texnologik uskunalardan ajraladigan issiqlik hisobiga shakllanadi. Issiq havo massalarining yengillashib yuqoriga ko'tarilishi hamda ularning o'rnini nisbatan sovuq havo egallashi natijasida binoda konveksion issiqlik almashinuvi yuz beradi.

Ushbu jarayon havo haroratining bino hajmi bo'ylab nisbatan bir tekis taqsimlanishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish changi ishlab chiqarish muhitidagi eng jiddiy zararli omillardan biri hisoblanadi. Chang zararlanishi avvalo respirator tizim darajasida namoyon bo'lib, pnevmokonioz, surunkali bronxit, allergik reaktsiyalar, toksik ta'sirlanish va boshqa kasbiy kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Chang zarrachalarining yuqori nafas yo'llariga va ko'z shilliq qavatiga ta'siri riniti, kon'yunktiviti va dermatitlarni chaqirishi mumkin. Mayda dispers changning alveolyar darajagacha kirib borishi esa pnevmoniya, sil kasalligi va o'pka malign neoplaziyalarining rivojlanish xavfini oshiradi.

Changlanishni kamaytirishning asosiy gigiyenik talabi — chang manbalarini imkon qadar bartaraf etish yoki ularning ajralish intensivligini minimallashtirishdir. Buning uchun changlanadigan quruq xomashyolarni ho'l yoki pastasimon holatdagi materiallar bilan almashtirish, texnologik jarayonlarni chang chiqaruvchi bosqichlarni kamaytirgan holda tashkil qilish, zarur hollarda xom ashyoni granulalar yoki tabletka ko'rinishida qo'llash tavsiya etiladi. Zaharli moddalarning saqlanishida germetik yopiladigan, kimyoviy jihatdan chidamli idishlardan foydalanish zarur.

Ishchilarni zararli omillar ta'siridan muhofaza qilish tizimi shaxsiy va jamoaviy profilaktik choralar majmuasini o'z ichiga oladi. Ular maxsus himoya kiyimlari va vositalar bilan ta'minlash, xavfsizlik texnikasi va sanoat sanitariyasi bo'yicha o'qitish, muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek gigiyenik normativlarga muvofiq sanitariya-maishiy sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishdagi fizik va kimyoviy omillar uchun ruxsat etilgan miqdoriy chegaralar (RUX) belgilanishi inson salomatligi uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Qurilayotgan va loyiha qilinayotgan zavod, fabrika va boshqa ishlab chiqarish obyektlarida gigiyenik-sanitariya masalalari bo'yicha ma'lum talablar qo'yiladi. Mehnat gigienasi bo'yicha muhandis va ularning yordamchilarini joylardagi havoning tozaligi, mehnat fiziologiyasi talablarining bajarilishi, meteorologik sharoitlarga doir sanitariya me'yorlari, ish joylarining yoritilishi, ishlab chiqarishda shikastlanishlarning oldini olish bo'yicha choralar qo'llanishi ustidan nazorat qilib boradilar. Bu ma'lumotlar tahlili va ishchilarning salomatligi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida sog'lomlashtirish tadbir-rejalari sanitariya nazoratining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish va qurilish obyektlarida mikroiklim, havoning tozaligi, yoritilish va sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya etish ishchilarning sog'lig'i va mehnat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Chang, issiqlik, nurlanish va boshqa zararli omillarni kamaytirish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, shaxsiy himoya vositalarini qo'llash va tibbiy ko'riklarni muntazam o'tkazish kasb kasalliklari va jarohatlarning oldini oladi hamda mehnat unumdorligini oshiradi.

Shu bois gigiyenik me'yorlarni to'liq joriy etish xavfsiz va samarali mehnat muhitini yaratishning eng asosiy shartidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Narziyev Sh.M., Qurbonov Sh.X. Hayot faoliyati xavfsizligi. Oquv qollanma T.: Yangi nashr, 2019. 236 b
- 2.Razzoqov H, Mamasov Sh. Hayot faoliyati xavfsizligi. T.: Fan va texnologiyalar, 2019. -287 b
- 3.Yuldashev O.R.. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./ Darslik. T.: Tafakkur qanoti, 2015. -336 b